

**O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO'NALISHLARI**

Palvanbayev Umidbek O'ktam o'g'li

O'zbekisto Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi Xorazm viloyati hududiy filiali bosh mutaxassisi, e-mail: palvanbayevumidbek@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy holati, tadbirkorlikni yanada faollashtirish va uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi ustuvor yo'nalishlar ilmiy asoslangan holda yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *kichik biznes, tadbirkorlik, innovatsion tadbirkorlik, davlat siyosati, hududiy rivojlanish*

Аннотация: *В данной статье научно рассматривается текущее состояние развития предпринимательства в Узбекистане, а также приоритетные направления, способствующие дальнейшей активизации предпринимательства и повышению его эффективности.*

Ключевые слова: *малый бизнес, предпринимательство, инновационное предпринимательство, государственная политика, региональное развитие*

Annotation: *This article provides a scientific examination of the current state of entrepreneurship development in Uzbekistan, as well as priority areas that contribute to the further activation of entrepreneurship and increasing its efficiency.*

Keywords: *small business, entrepreneurship, innovative entrepreneurship, public policy, regional development*

KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida tadbirkorlik sektori muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu soha nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, bozor raqobatbardoshligini oshirish hamda davlat byudjetining daromad bazasini kengaytirishda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan dasturlar va amaliy chora-tadbirlar mazkur sektorning izchil rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'nalishlarini takomillashtirish esa O'zbekistonning jahon iqtisodiy tizimidagi raqobatbardosh mavqeini mustahkamlashga zamin yaratadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ularni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ma'muriy va byurokratik to'siqlarni

qisqartirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Mazkur hujjatlar mamlakatda tadbirkorlik faoliyati uchun qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga xizmat qilmoqda. [1]

Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlikning iqtisodiy o'sishdagi o'rnini alohida e'tirof etiladi. Xususan, Jahon banki tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar kichik va o'rta biznes subyektlarini bandlik darajasini oshirish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda innovatsion jarayonlarni joriy etishda muhim omil sifatida baholaydi.[2]

Mahalliy iqtisodchi olimlar olib borgan tadqiqotlar ham tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashga qaratilgan. Xususan, ushbu tadqiqotlarda tadbirkorlik subyektlarini kreditlash tizimini takomillashtirish, soliq yukini maqbullashtirish hamda infratuzilmani rivojlantirish zarurligi alohida ta'kidlanadi.[3]

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatida inson kapitalining ahamiyati ham alohida e'tiborga loyiq hisoblanadi. Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish hamda yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tadbirkorlik taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida baholanadi.[4]

O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish, turizm sohasini, xususan xalqaro turizm va turoperatorlik faoliyatini kengaytirish, kichik biznes subyektlarini rag'batlantirish hamda eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash kiradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmog'ini modernizatsiya qilish va istiqbolli biznes g'oyalarni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishlarning izchil amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash hamda aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari quyidagi jadval asosida tahlil etilgan.

1-jadval

Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari

1	Biznes muhitini takomillashtirish va tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy-islohot mexanizmlarini rivojlantirish.	Tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri biznes muhitini takomillashtirish va huquqiy islohotlarni amalga oshirish bo'lib, bunda byurokratik to'siqlarni qisqartirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish hamda onlayn tizimlarni joriy etish orqali tadbirkorlik faoliyatini yuritish yengillashtirilmoqda, shuningdek, hukumat tomonidan berilayotgan soliq imtiyozlari, kredit imkoniyatlari va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari tadbirkorlarning faoliyatini kengaytirishga xizmat qilmoqda.
2	Innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni	Tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri innovatsion tadbirkorlik va yangi texnologiyalarni joriy etish bo'lib, bunda ilmiy-texnik yutuqlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish, raqamli iqtisodiyot hamda startaplar ekotizimini rivojlantirish asosiy omil sifatida namoyon bo'lmoqda, shu bilan

	amaliyotga tatbiq etish.	birga davlat tomonidan IT sohasi, yuqori texnologiyali sanoat va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash orqali biznes jarayonlarini optimallashtirish hamda yangi mahsulot va xizmatlar yaratish imkoniyatlari kengaytirilmoqda.
3	Tadbirkorlik sohasida ta'limni rivojlantirish va malakali kadrlarni tayyorlash.	Tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri kadrlar tayyorlash va ta'lim tizimini takomillashtirish bo'lib, bunda tadbirkorlikka oid maxsus kurslar, seminar va treninglarni tashkil etish orqali tadbirkorlar uchun zarur bilim hamda ko'nikmalar shakllantirilmoqda, shuningdek, moliyaviy, yuridik va menejment sohalaridagi bilimlarni chuqurlashtirish hamda innovatsion yo'nalishlar uchun malakali mutaxassislar tayyorlash biznes samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.
4	Xalqaro hamkorlikni kengaytirish hamda eksport faoliyatini rivojlantirish.	Tadbirkorlikni rivojlantirishda eksport faoliyatini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etib, bunda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, savdo bitimlarini kengaytirish va mahsulotlarni tashqi bozorlarga yetkazib berish tizimini takomillashtirish orqali mamlakatning eksport salohiyati oshirilmoqda, shu bilan birga davlat tomonidan xususiy sektorni rag'batlantirishga qaratilgan imtiyoz va dasturlar tadbirkorlarning xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirib, global bozorda yangi mahsulotlarni ilgari surishga xizmat qilmoqda.
5	Moliyaviy hamda kredit resurslari imkoniyatlarini kengaytirish.	Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda moliyaviy resurslar va kreditlardan foydalanish imkoniyatlari muhim ahamiyat kasb etib, O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash maqsadida kredit olish jarayonlarini yengillashtirish, foiz stavkalarini pasaytirish hamda kichik kreditlar ajratish orqali moliyaviy imkoniyatlar kengaytirilmoqda, natijada tadbirkorlar o'z loyihalarini amalga oshirish va biznesini kengaytirish uchun zarur kapitalga ega bo'lish imkoniga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash yo'nalishida sezilarli natijalarga erishilgan bo'lishiga qaramay, ayrim tizimli muammolar ham saqlanib qolmoqda. Davlat siyosati doirasida ro'yxatdan o'tish jarayonlarining soddalashtirilishi, soliq yukining kamaytirilishi hamda kredit dasturlarining kengaytirilishi muhim ahamiyat kasb etsa-da, ushbu imkoniyatlardan hududlar va aholi qatlamlari bir xil darajada foydalana olmayapti.

Birinchiidan, hududlar kesimidagi iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilma rivojlanishidagi tafovutlar tadbirkorlik faolligining notekis taqsimlanishiga sabab bo'lmoqda. Yirik shaharlar bozor sig'imi kengligi, transport va kommunikatsiya tizimlarining rivojlanganligi hamda moliya institutlariga yaqinlik kabi omillar tufayli biznes yuritish uchun nisbatan qulay sharoitga ega. Qishloq hududlarida esa bozor hajmining cheklanganligi, logistika xarajatlarining yuqoriligi hamda professional xizmatlar infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatiladi.

Ikkinchiidan, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlari bilan bog'liq muammolar hanuz dolzarb bo'lib qolmoqda. Garov talablarining yuqoriligi, kredit tarixining yetarli emasligi hamda risklarni sug'urtalash mexanizmlarining cheklanganligi yangi faoliyat boshlayotgan tadbirkorlar uchun jiddiy to'siqlarni yuzaga keltirmoqda.

Uchinchidan, tadbirkorlik madaniyati va zarur ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligi ham muhim muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Ko'plab kichik biznes subyektlarida biznes-reja ishlab chiqish, moliyaviy hisob-kitoblarni yuritish, marketing strategiyalarini shakllantirish hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha bilim va malakaning yetishmasligi ularning barqaror faoliyatini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi konseptual yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkin: ya'ni tadbirkorlikni rivojlantirishni faqat normativ-huquqiy imtiyozlar bilan cheklamasdan, balki inson kapitali, biznes madaniyati va raqamli kompetensiyalarni oshirish orqali kompleks qo'llab-quvvatlash; hududiy yondashuvni kuchaytirib, har bir mintaqa uchun mahalliy resurslar, kadrlar salohiyati hamda logistika imkoniyatlarini hisobga olgan holda maxsus tadbirkorlik strategiyalarini ishlab chiqish; shuningdek, ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlar, jumladan yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan tadbirkorlik dasturlarini kengaytirish zarur.

Xulosa.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, mamlakatimizda tadbirkorlikni rivojlantirishning samarali yo'nalishlari sifatida innovatsion va raqamli tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, hududlarda oilaviy hamda ijtimoiy tadbirkorlikni kengaytirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, shuningdek, qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatida klaster hamda kooperatsiya tamoyillari asosida kichik biznesni chuqurlashtirish muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, turizm va xizmatlar sohasida yuqori qo'shilgan qiymatga ega loyihalarni ko'paytirish hamda ta'lim tizimi orqali tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirish alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlikni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. Toshkent, 2017–2024.
2. Jahon banki (World Bank). Small and Medium Enterprises (SMEs) Finance. Washington DC, 2023.
3. Abdullayev Y., Xodiev B. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. Becker G. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. Chicago: University of Chicago Press, 2020.
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/>